

GEMORRAGIK ISITMA

Sirodjiddinoba Nigora Kamaritdinovna

Kayumova Sarvinoz Daminovna

To'xtayeva Intizor Anvarovna

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

Annotatsiya : Gemorragik isitma — temperatura ko'tarilishi, teri ostiga va ichki a'zolariga qon quyilishi bilan davom etadigan virusli kasalliklar guruhi. Gemorragik nefrozonefrit, Qrim gemorragik isitmasi, Omsk gemorragik isitmasi va boshqa xillari bor.

HEMORRHAGIC FEVER

Abstract: Hemorrhagic fever is a group of viral diseases characterized by fever, bleeding under the skin and internal organs. There are hemorrhagic nephrozonephritis, Crimean hemorrhagic fever, Omsk hemorrhagic fever and others.

Kasallik virusi yumronqoziq, dala sichqoni va boshqa kemiruvchilarda bo'lib, ulardan odamga turli yo'llar bilan (kemiruvchilar tezagi bilan ifloslangan oziq-ovqat, suv orqali, shuningdek kana chaqqanda) yuqadi. Kasallikning barcha shakllarida qaltirash, isitmalash, bosh og'rig'i, darmon qurishi, terida mayda qon quyilishlar (toshmalar) kuzatiladi: burun, milk qonaydi, ayrim a'zolar, jumladan buyraklar zararlanadi, shu sababdan bel qattiq og'rib, bemorga tinchlik va uyqu bermaydi. Kasallik yengil kechganida bemor isitmalaydi, lekin qon oqishi va buyrak zararlanishi kuzatilmaydi. Kasallikning hamma xilida ham bemor kasalxonada davolanishi lozim. Davo kasallikning belgilariga qarab tayinlanadi, yurak va buyrak faoliyatini maromiga keltiradigan, qon oqishini to'xtatadigan va boshqa doridarmonlar buyuriladi. Gemorragik isitmaning oldini olish uchun kemiruvchilarni qirish, oziq-ovqatni jips berk idishda saqlash, kanani yo'qotish kerak.

Tibbiyot olimlari gemorragik isitma kasalliklarini epidemiologik belgilariga ko'ra 3 guruhga bo'lishgan:

- kanalar orqali yuqadigan gemorragik isitmalar: Qrim-Kongo gemorragik isitma, Omsk gemorragik isitma;
- chivinlar orqali yuqadigan gemorragik isitmalar: sariq isitma, Denge gemorragik isitma, Chikungunya gemorragik isitma;
- kontagioz zoonoz gemorragik isitmalar: buyrak sindromi bilan o'tadigan gemorragik isitma, Argentina, Boliviya, Morburg gemorragik isitmalaridir. Bu kasallik

turlari ko'p jihatlari bilan bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, kasallikning avj olishi, rivojlanishi, epidemiologik jarayoni, qo'zg'atuvchilarning manbalari hamda yuqish yo'llari bilan bir-biridan farq qiladi. Bular orasida mintaqamiz hududlarida nisbatan keng tarqalgani Qrim-Kongo gemorragik isitma kasalligi bo'lgani bois mazkur kasallik haqida ma'lumot bermoqchimiz.

Bu virus qo'zg'atadigan, ko'pincha cho'l zonalarida uchraydigan o'ta xavfli yuqumli kasallikdir. Mazkur kasallik qadimdan ma'lum bo'lib, bu bilan faqat insonlar kasallanadi. Ba'zi holatlarda kasallik og'ir kechib, bemor organlaridan qon ketishi natijasida o'limga ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun mamlakatimizda bu xavfli kasallik «qora halak» (qora o'lim) nomi bilan keng yoyilgan. Kasallik ilk marotaba 1944 yilda Qrimda, 1956 yilda Kongo davlatida aniqlanganligi uchun tibbiyot sohasiga «Qrim-Kongo gemorragik isitma kasalligi» nomi bilan kiritilgan. Asosan, Afrika, Bolqon, Yaqin Sharq va Osiyo davlatlari kabi issiq iqlimli hududlarda uchraydi.

Kasallikning oldini olish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qiling

- cho'l hududlariga (tabiat quchog'iga) aprel-iyul oylarida imkon qadar chiqmaslik;
- cho'l hududlaridan, bozorlardan mayda va yirik shoxli mollarni kanaga qarshi ishlov bermasdan uyga olib kelmaslik;
- mollarda kana borligi aniqlansa, darhol veterinariya shifokoriga murojaat qilib, ularning tavsiyasi asosida kanalarga qarshi ishlov berish;
- kanalarni qo'l bilan ezib va qaychi bilan kesib o'ldirmaslik;
- chorva mollari va ular yashaydigan joylarni to'liq va sifatli dezinfeksiya qilish;
- qirqim mavsumiga yosh bolalar va o'smirlarni jalb etmaslik;
- qirqim vaqtida faqat maxsus kiyim (qo'lqop, yeng va poychalari mustahkam berkitiladigan shim, kamzul, rezina etik)lardan foydalanish;
- qirqim paytida shaxsiy gigiyena qoidalariga puxta amal qilish talab etiladi.